

SHARQDA XAYRIYANING NAZARIY YONDASHUVLAR ASOSIDA O'RGANISH

Mamatova Muxarram Saidvaliyevna

Namangan xalqaro tibbiyot texnikumi o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada xayriya faoliyatining ijtimoiy xodisa sifatida sharq allomalari qarashlariga asoslangan holda nazariy jihatdan o'rganilib, xayriya faoliyatining o'ziga xos qonuniyatlari, xayriyani amalga oshirishning zaruriy shart-sharoitlari sharqona turmush tarzidan kelib chiqib tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: xayriya, xayriya tashkilotlari, mexr-muruvat, ko'mak, inson, muxtojlik, xayr-ehson, ehtiyoj

ИССЛЕДОВАНИЕ ТЕОРЕТИЧЕСКИХ ПОДХОДОВ БЛАГОТВОРИТЕЛЬНОСТИ НА ВОСТОКЕ

Маматова Мухаррам Саидвалиевна

Преподаватель Наманганского международного
медицинского колледжа

Аннотация: В данной статье благотворительная деятельность как социальное явление теоретически исследуется на основе взглядов восточных ученых, анализируются специфические закономерности благотворительной деятельности, необходимые условия осуществления благотворительности на основе восточного образа жизни.

Ключевые слова: благотворительность, благотворительные организации, благотворительность, помощь, человек, нужда, пожертвование, нужда.

A STUDY ON THEORETICAL APPROACHES OF CHARITY IN THE EAST

Mamatova Mukharram Saidvaliyevna

Teacher of the Namangan International Medical College

Abstract: In this article, charity activity as a social phenomenon is theoretically studied based on the views of Eastern scholars, the specific laws of charity activity, the necessary conditions for the implementation of charity are analyzed based on the oriental way of life.

Key words: charity, charitable organizations, charity, help, human, need, donation, need

Xayriya jamiyatning asosiy hodisasi sifatida ko'pchilik mutaxassislar tarixchilar, sotsiologlar, psixologlar, faylasuflar, madaniyatshunoslar, iqtisodchilar, huquqshunoslar va boshqa soha vakillari tomonidan o'rganilgan. Har bir soha mutaxassislari muammoni o'zlarining sohalaridan kelib chiqqan holda tahlil qilishgan. Masalan, tarixchilar "Ma'lum bir tarixiy davrda xayriya qanday xolatda bo'lgan?" degan masalani ochib bersa, sotsiologlar shu holatni bugungi kun holati bilan bog'lab tahlilni amalga oshirada va kelajagini bashorat qiladi. Xayriyani ilmiy yondashuvlar asosida o'rganish doimo dolzarb mavzu bo'lib kelgan. Ilmiy adabiyotlarda asosan uning tarixiy ildizlari, zamonaviy ko'rinishlari, taraqqiyoti va insonparvarlikning bir ko'rinishi holatida yoritilgan. Xayriyani ilmiy o'rganish bugungi O'zbekistonda milliy modernizatsiyaning aniq faktorlaridan biri sifatida ko'rish imkonini beradi.

Xayriyani tahlil qilganda turli xil yondashuvlarga tayanamiz. Eng avvalo xayriyaning diniy, sotsial - etnik va boshqa aspektlarining falsafiy asosini tahlil qilish bilan mavzu oydinlashadi. Bu yondashuvga ko'ra xayriya inson tafakkurining falsafiy va diniy mahsuli bo'lgan tarixiy an'ana deb qaraladi. Xayriya umumbashariy qadriyat hisoblanib, muhtoj insonlarga ko'mak berish deb tushuntiriladi.

Xayriya arabcha so'zdan olingan bo'lib "yaxshilik qilish", "yordam berish" degan ma'nolarni anglatadi. Ilmiy adabiyotlarga murojaat qiladigan bo'lsak, xayr – bu arabcha so'z xayr(un) shakliga ega "xara" fe'lining ixtiyor qildi ma'nosi bilan hosil qilingan. Masdari bo'lib arab tilidan o'z ixtiyori bilan beriladigan moddiy yordam – ehson ma'nosi bilan qabul qilingan.¹ Ayrim adabiyotlarda xayriya so'zi bilan o'zbek tilida "xayroli" sifati yasalgan deyiladi. Biz bu so'z bilan bog'liq bo'lgan xayr-sadaqa, xayr-ehson juft so'zlarini xam ishlatamiz, Lekin beradigan ma'no-mohiyati bir xil hisoblanadi. Rus adabiyotlariga murojaat qiladigan bo'lsak, xayriya "blagotvoritelnost" deb tarjima qilinadi va "blago" xursandchilik, "darit" berish ya'ni insonlarga xursandchilik bera olish ma'nosini beradi. "Charity" xayriyaning ingliz adabiyotlaridagi tarjimasini bo'lib lotinchadan olingan "caritas" xudo uchun insonning do'stligi ma'nosini beradi.

Xayriya xislat va foydali harakat, boshqalarga yaxshilik qilish, kambag'allarga yordamlashish, yakka shaxslar va tashkilotlarning kambag'allar, kam ta'minlanganlarga rahm-shafqat yuzasidan moddiy yordam ko'rsatishni ifodalaydi.

Xayriyani turli xil rejalar asosida tahlil qilish bugungi O'zbekistonda milliy modernizatsiyaning aniq faktorlaridan biri sifatida ko'rish imkonini beradi.

Xayr bu arabcha so'z xayr(un) shakliga ega "xara" fe'lini ixtiyor qildi ma'nosi bilan xosil qilingan birinchi bob masdari bo'lib arab tilidan o'z ixtiyori bilan beriladigan moddiy eg'son ma'nosi bilan qabul qilingan. Bu so'z bilan o'zbek tilida xayroli sifati yasalgan. Xayr-sadaqa, xayr-ehson juft so'zlari tuzilgan.² Boshqa

¹Raxmatullayev Sh. O'zbek tilining etimologik lug'ati. -Toshkent: Universitet, 2003. -B.66.

²O'zbek tilining izohli lug'ati. 4-jild,-Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2004. -B. 85.

manbalarda xayriya arabcha xayr sahovat, ehson, muhtojlarga yordam ma'nolarini beradi deb ma'lumot beradi. Islom aqidalariga ko'ra xayriya islom paydo bo'lganidan boshlab targ'ib etiladi.

Xayr - sadaqa deganda musulmonning xudo yo'liga biror nimani atashi, bag'ishlashi, ehson, tuxfa, xadya, sadaqa qilishi tushuniladi. Sadaqa berish, xayr-ehson qilish bizning o'zbek xalqimiz urf-odatlarida juda qadimdan mavjud bo'lib, bu mehr-shavqat, xayriya va beminnat yordam millatimiz ruhiga bir umr kamro bo'lib kelgan odatdir. "Sadaqa raddi balo" ya'ni sadaqa baloni qaytaradi degan aqidaga amal qilingan Ollo taolo tabiat yaxshi, serhosil ne'matlar xadya qilishi uchun tuya, xo'kiz, qo'y-qo'zilar so'yilib darvishonalar qilingan. Bu taomlar birinchi navbatda muhtoj, zaif, kambag'al, beva-bechoralarga tortiq qilingan. Xayriyalar musofirxonalar, shifoxonalar, yetimxonalar, masjid va maktablarga sidqidildan, beminnat, beta'ma berilgan. "Sadaqa" so'zi "sad qaisar" ya'ni bosh ko'zdan sadaqa degan ma'noni uqtiradi.

Ibn Foris yozadi: "Sad, dol va kofni bir narsaning har jixatdan quvvatli ekanini anglatuvchi ayoldir. Shu bois sidq - rostgo'ylik ya'ni yolg'izlikning antonimi bo'ladi. Chunki yolg'iz xech qachon quvvatga ega bo'lmagan botimdir. Ayolning maxri "sadoq" deb ataladi. Zero bu talab qilingan olinadigan xaqdir. Kishi birodariga chindan xam mehr-muhabbatli bo'lsa, uni yordamsiz tashlab qo'ymaydi. Odamlar bunga "sadoqat" deb ataydi. Ehtimol kishining iymoni rostligiga va da'vosi chinligiga dalil bo'lgani uchun xam zakot, xayr-ehson arab tilida "sadaqa" nomini olgan.

Rasululloxo sallallohu alayhi vassallam dedilar: "Sadaqa hujjatdir". Inson o'zining moliyaviy yoxud boshqa bir xaq-xuquqidan voz kechsa xam aynan yuqoridagi ibora ishlatiladi. Endi kim uni sadaqa qilib yuborsa, o'zi uni kafforat ya'ni gunoxlarni o'chirib yuboruvchi bo'lur.

"Agar nochor bo'lsa, boyiguncha kuting agar bilsangiz bergan qarzingiz sadaqa qilib kechib yuborishingiz o'zingiz uchun yaxshiroqdir."

"Ehson – astoydillik, vijdoniylik, samimiylik."³

Qur'onda diniy majburiyatlarni o'tashdagi samimiylikni, riyokorlikning zidi. Umar ibn Xattobdan kelgan hadislardan birida aytishicha "Ehson rabbingga xuddi uni ko'rib turgandek ibodat qilishdir. Agar sen uni ko'rmagan taqdiringda xam u seni ko'rib turadi." Al-G'oziliy ehson terminini adl adolat so'zi bilan birga qo'llaganki, bular birgalikda adolat va vijdon mazmunini beradi.

Tasavvufda ehson- e'tiqodning oliy bosqichi bo'lib, undan keyin iymon, so'ng islom turadi.

"Futuvvatning uch martabasi bor: avval saxovat ya'ni bor narsasini xech kimdan qizg'anmaslik..."⁴ Salmon forsiy (Muxammad alayhissalomning yaqin sahobalaridan)

³ Islom ensiklopediyasi.- Toshkent: Ma'naviyat, 2001. -B.55.

⁴ Koshifiy H.V. Futuvvatnomai sultoniyy. - Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2011. -B. 88.

futuvvat xususida shunday deganlar: “Futuvvat barchaga insof-muruvvat ko‘rsatish va evaziga xech narsa talab qilmaslik”.

Mutafakkir-iloxyotchi olim va adib, buyuk axloq muallimi Husayn Voiz Koshifiy (1442/46-1505) “Futuvvatnomai sultoni” kitobida futuvvatning botiniy ruknlarini quyidagicha sanaydilar: “Birinchisi – saxovat, ya'ni tilamasdan burun yoz mahalida bag‘ishlamoq oqibatini o‘ylamaslik. Ikkinchisi - tavoze, uchinchisi – qanoat, to‘rtinchisi - avf va marhamat ya'ni xalqqa shafqat ko‘rgizmoq, kishilar gunohini kechirmoq va iloji boricha ularga yaxshilik, muruvvat bilan muomala qilish”.⁵

Alisher Navoiy “Nasoyil ul-muhabbat” asarining debochasida shunday yozadilar: “Avliyolarda zohir bo‘ladigan g‘ayritabiiy odatlar va karamatlar bayoni va avliyolarning martabalari ko‘p bo‘lganidek, bo‘lganlarga rahnomalik qilish va yordam berish”.

Bu yaxshi hislatlar ezgulik, ezgu axloq sari yo‘naltirilgan bo‘lib, kishilar orasida ilohiy fayzu barakatning kengroq yoyilishini ta'minlagan, islomiy haqiqatlar, e'tiqod ruknlarini mustahkamlaydi. Ahmad Yassaviy o‘zining hikmatlarida shunday deydi:

Ummat bo‘lsang g‘ariblarga tobe bo‘lg‘il,
Oyat, hadis har kim aytsa some bo‘lg‘il.
Rizqu ro‘zi har kim bersa qone' bo‘lg‘il,
Qone' bo‘lib shavq sharobin ichdim ma'no.⁶

Alisher Navoiy barcha asarlarida muruvvatning sharofatli, xayr-ehsonning savobi, yaxshilikning saodati, baloi nafsning ofati xususida ancha keng ma'lumot beradi. Navoiy yozadi:

To hirsu xirmoni barbod o‘lmas,
El shod o‘lmas, mamlakat obad o‘lmas⁷.

Navoiy o‘zining shox asari bo‘lmish “Mahbub ul-qulub”da muruvvatning fazilatlarini, saxovatning koni foydasi haqida umrboqiy so‘zlarni aytadi. U saxovatsiz kishini yog‘in-sochini yo‘q bulutga qiyoslaydi va deydi:

“Mevasiz daraxt hamonu o‘tun hamon va yog‘insiz bulut hamonu tutun hamon”⁸.

Navoiyning fikricha “baxil kishi behishitga ya'ni jannatga kirmas, agar sayyidi qurayshiy bo‘lsun va saxiy tamug‘u bormas, agar bandai xabashiy bo‘sin”. Navoiy saxovatga bag‘ishlangan maxsus fasl so‘ngida biz avlodlar uchun vasiyat qiladi: “Desanki, taoming zoe bo‘lmagay yedir va tilasangki, libosing eskirmagay - kiydir”⁹. Demak, yeganingdan yedirganing a'loroq, kiyganingdan kiydirganing yaxshiroq ekan.

Navoiyning “Hayrat ul abror”ida muruvvat, saxovat haqida go‘zal fikrlar bildirilib, hikmatlar aytiladi. Alisher Navoiy xayr saxovat qiluvchilar haqida so‘z

⁵ Komilov N. Tasavvuf – Toshkent: Movaraunnahr, 2009. -B. 23.

⁶ Yassaviy Hikmatlar.- Toshkent: Sharq, 1992. -B.42.

⁷ Navoiy A. Mahbub ul-qulub. - Toshkent: Meros,1998. -B. 58.

⁸ Navoiy A. Mahbub ul-qulub. - Toshkent: Meros,1998. -B. 86.

⁹ Navoiy A. Mahbub ul-qulub. - Toshkent: Meros,1998. -B. 97.

aytayotib, xayriya yordami haqida “Muruvvat- barcha bermakdir, demak yo‘q”, deya talqin etadi yoki :

Yoyar anga suprasi, ul och emas,

Berur anga to‘nki, yalang‘och emas.¹⁰ Degan misralarida ayrim kimsalarning saxovatpeshaligini fosh etadi ya'ni Navoiy xayr-ehsonga muhtojlar yetim-yesir, himoyaga zor kambag‘al miskinlarga berilmas ekan bu xayr-ehson emasligini uqtiradi.

Xayr-ehson va ziyofat berishdan asosiy maqsad muhtojlarga moddiy yordam ko‘rsatish bo‘lmog‘i darkorligi to‘g‘risida Rasuli Akrom shunday deganlar: ”Taomlarning yomoni qorni ochlar qolib, qorni to‘qlar chaqirilgan ziyofatdir”.

Imomi A'zam rahmatullohi alayhning g‘oyat ibratli bir gaplari bor: “Xayr va ehsonda isrof bo‘lmaydi”.

Yusuf Xos Hojib “Qutadg‘u bilig” asarida boylarni kambag‘allarga nisbatan muruvvatli bo‘lishga, xayr-ehson qilishga chaqiradi. Abu Nasr Forobiy “Fazilat, baxt-saodat va kamolat haqida” asarida muruvvat, xayr-ehson haqida qimmatli fikrlarni bayon qiladi. Abu Hurayra rivoyat qilishicha hazrat Nabiy shunday deganlar: ”Agar o‘z mol-mulkingdan xayr-ehson qilib tursang Ollox oldidagi qarzingdan qutilasan”¹¹. Ibn Ali Tolibning rivoyat qilishicha hazrat Rasululloh shunday deganlar: “Yilqi va qo‘ylardan xayr-ehson qilishdan sizlarni ozod etdim, puldan xayr –ehson beringlar , qirq dirhamdan bir dirham , to‘qson to‘qqizga hyech narsa bermaysizlar , agar ikki yuzga yetsa , besh dirham ehson qilasizlar ”¹².

Kristofer Morle shunday deydi: “yer va quyoshli borliqdagi tiriklikni sev. Qo‘l cho‘zganga xayr-ehson qil. Daromadingni va mehnatingni atrofingdagilarga bag‘ishla”.

Xayriya – xalqqa manfaat yetkazish, yaxshilik qilishdir. Saxovat yaxshi nom chiqarishning sababidir. Navoiy zamondoshi Koshifiy “Axloqi muhsiniy” asarida shunday baytni keltiradi:

Kishi topqay, sharafni judidin,

Hurmat qurbni sujudidin.

Kishikim, yo‘q aningda bu ikki,

Ish yo‘qlig‘i xo‘bdir vujudidan¹³.

Bunda aytishicha saxovat jannatni daraxti, xaqning xushnudlik arig‘i bo‘yida o‘sadi. Ya'ni Alloh minnatdor bo‘ladi.

Hakimlarning biridan so‘radilar: “Hamma yaxshi hunarni zoe qiladigan ayb nima?”. U javob berdi : “Baxillik”. Va yana so‘radilar: “Hamma ayblarni o‘rnini bosadigan eng yaxshi hunar qaysidir?”. Javob berdi: “Saxovat”.

Iskandar Arastudan so‘radi: “Dinu dunyo saodati nimadan bo‘ladi. Dedi: Saxovat

¹⁰ Navoiy A. Hayrat ul abror.- Toshkent:Meros, 2011. -B. 33.

¹¹ Forobiy Abu Nasr. Fazilat, baxt-saodat va kamolat haqida.- Toshkent: Yozuvchi, 2002. -B. 28.

¹² Forobiy Abu Nasr. Fazilat, baxt-saodat va kamolat haqida.- Toshkent: Yozuvchi, 2002. -B. 28.

¹³ Koshifiy X. V. Axloqi muhsiniy. - Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2011. -B. 198.

va ehsondan. Ammo din saodatiga erishish uchun Haqning shunday amri mavjud: “Man joa bil – hasanati fa – lahu amru amsoliho” (“An’om” surasi, 160 oyat)¹⁴ – Kimki bir hasana (savobli ish) qilsa, unga o’n barobar qaytadi.

Saxovatli kishidan manfaat ko’rmagan kishi xam uni xalo’ yaxshi ko’radi. Masalan, Hotam Toiyning yaxshiligi ham yuksaklarga ko’tariladi.

Hotam Toiy jahondin ketti, lekin to abad,

Yaxshi avsofi saxo ahli aro qoldi sanad.¹⁵

Uning aytishicha Hotam Toiy dunyodan ketsa xam uning qilgan yaxshiliklari el og’zidan tushmaydi, abadiy yashaydi.

Haq subhana manishurini “Va huva muhsinun falahu ajrun inda Robbihi ” (Baqara surasi, 112-oyat)¹⁶, ya’ni yo’q kimki yuzini o’zini allohga bo’ysundirsa, Robbi huzurida unga ajar(mukofot) muhayyodir.

Ahmad Yassaviy hikmatlarida g’arib, yetim, faqirlarga yordam berish, ehson qilish haqida so’zlaydi:

G’arib faqir yetimlarni qilg’il shodmon,

Xaqlar qilib, aziz jonim ayla qurbon.

Taom topsang, joning bila qilg’il ehson,

Xaqdin eshitib bu so’zlarni aytdim mano.

G’arib faqir yetimlarni har kim so’rar,

Rozi bo’lur ul bandadin parvardigor.

Ey bexabar, sen bir sabab o’zi asror,

Xaq mustafo pandin eshitib aytdim ma’no.¹⁷

Bundan anglashiladiki faqirlar, yetimlar, kambag’allarni ko’nglini ovlab topgan molingdan ularga xayr-ehson qilsang sendan Alloh rozi bo’ladi va u bilan yaqin turasan. Qilgan gunohlaringni kechiradi va jannatdan sen uchun o’rin ajratiladi.

O’z davrining mashhur shoira, xattoti, axloqiy fazilatlar egasi Abulqosim az-Zamaxshariy “Al-Mufasssal” asarida xayr-saxovat haqida aytadi: “Hayot vaqtingda bergan in’om-ehsonlaring, garchi ularni qirchanggi bo’riga bergan bo’lsang-da, zoe ketmas. Qiyomat kunida bularning ajri senga bo’lur.” Ya’ni xayr-ehson kimga qilsangda, qilgan yaxshiliging bekorga ketmaydi. Alloh uni qiyomat kunningga asrab senga mukofat qiladi. Va jannatning eshiklari ochiladi.

Nizomiy Ganjaviydan so’ng xamsachilik an’nasini davom ettirgan, Navoiyga ustoz bo’lgan Xusrav Dehlaviy fors, urdu tillarida ijod qilgan shoir bo’lib, “Xamsa”sida shunday deydi: “Pinhon tutsang yo’qolur, bersang o’zingda qolur.” Bundan anglashiladiki, molingdan yordamga muhtoj, kambag’al kishilarga ehson qilsang molingga xudo baraka beradi va davlating yana ko’payadi. Aksincha molingni

¹⁴ Qur’oni Karim. - Toshkent: Movaraunnahr, 2011, -B. 48.

¹⁵Koshifiy X. V. Axloqi muhsiniy. - Toshkent: O’zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2011. -B. 212 .

¹⁶ Qur’oni Karim. - Toshkent: Movaraunnahr, 2011. -B. 49.

¹⁷Yassaviy A. Hikmatlar.- Toshkent: Ma’naviyat, 1994. -B. 45.

qizg'ansang davlating barakasiz bo'lib yo'qola boladi.

Xayriya inson tafakkurining diniy –falsafiy mahsuli bo'lib, sharq va g'arb mufakkirlarining xayriya mavzusida ilgari surgan qimmatli fikrlarini ko'rib chiqdik. Bundan xulosa qilib aytamizki, xayriyaning nazariy fundamental asosi mukammal ekanligi va insonparvarlikning olijanob ko'rinishiga xosligini anglab yetamiz.

Xayriya jamiyatning ijtimoiy maydonida sotsial - iqtisodiy munosabatlarni yuzaga keltiradi. Xayriya qiluvchi va xayriya oluvchi sub'ektlar o'rtasida moddiy, nomoddiy va pulli resurslar almashinuvi jarayoni amalga oshiriladi.

Dunyo tajribalaridan shuni ko'rishimiz mumkinki, eng avvalo xayriya, muruvvat ko'rsatish dinning asosiy doirasi nuqtai nazaridan kelib chiqqan. Kambag'al va imkoniyati cheklangan insonlarga muruvvat ko'rsatishning qonuniy asosi sifatida Qur'oni Karim, Bibliya, Talmud va shu kabi diniy xujjatlar qabul qilingan. Eng qadimgi xayriya ya'ni kambag'al insonlarga yordam ko'rsatish Qadimgi Afina va Rimda namoyon bo'lgan. Keyinchalik bu ko'rinish yakka shaxs, masjid, jamoatchilik tashkiloti, davlat tashkiloti, jamg'armalarga ko'chdi. Bu barcha tashkilotlarning faoliyati davlat qonuni bo'yicha nazoratga olib turiladi.